

TOVARNING KAFOLAT MUDDATINI ANIQLASH VA HISOBBLASH MASALALARI

Zaxriddin To‘rayev

Fuqarolik ishlari bo‘yicha

Shayxontoxur tumanlararo sudi sudyasi

ANNOTATSIYA

Vaqt fuqarolik huquqlarini amalga oshirish va majburiyatlarni bajarishda o‘ziga xos o‘ringa ega. Shaxslarga tegishli bo‘lgan sub’ektiv fuqarolik huquqlarini amalga oshirish har doim ham ma’lum vaqt bilan belgilanmasa-da, lekin ko‘pchilik holatlarda bu jarayon qonun yoki shartnomada o‘rnataladigan ma’lum davrda amal qiladi. Fuqarolik huquqlarini amalga oshirish muddatlari deganda, sub’ektiv fuqarolik huquqi sohibining sub’ektiv huquqda ifodalangan imkoniyatlarni amalga oshirish imkoniyatlarini amalga oshirish davrini ifodalaydigan muddatlar tushuniladi. Ana shu muddat davomida huquq sohibi sub’ektiv huquq asosida o‘zida mavjud bo‘lgan imkoniyatlarni amalga oshirishi mumkin. Sub’ektiv huquqlarni tegishli muddat davomida amalga oshirmaslik muddatning o‘tishi bilan bu huquqning yo‘qotilishiga olib keladi. Kafolat muddatlari ham fuqarolik huquqlarini amalga oshirish muddatlari sifatida shaxsning o‘z huquqlarini himoya qilish muhim ahamiyat kash etadi.

Kalit so‘zlar: tovar, fuqarolik huquqi, kafolat, muddat, da’vo, iste’molchi, ishlab chiqaruvchi, sotuvchi, ijrochi.

ABSTRACT

Time occupies a special place in the exercise of civil rights and the performance of duties. Although the exercise of subjective civil rights belonging to individuals is not always determined by a certain period, but in most cases this process takes place within a certain period established by law or contract. The terms for the implementation of civil rights are the terms that represent the period of realization by the holder of subjective civil rights of the possibilities of realizing the possibilities expressed in subjective law. During this period, the right holder can realize the available opportunities on the basis of subjective rights. Failure to use subjective rights during the relevant period will result in the loss of this right over time. Warranty periods are just as important as civil rights periods for the protection of individual rights.

Keywords: trademark, civil law, guarantee, term, claim, consumer, manufacturer, seller, performer.

АННОТАЦИЯ

Особое место в осуществлении гражданских прав и исполнении обязанностей занимает время. Хотя осуществление субъективных гражданских прав, принадлежащих физическим лицам, не всегда определяется определенным сроком, но в большинстве случаев этот процесс происходит в течение определенного срока, установленного законом или договором. Сроками реализации гражданских прав являются сроки, представляющие собой период реализации обладателем субъективных гражданских прав возможностей реализации выраженных в субъективном праве возможностей. В этот период правообладатель может реализовать имеющиеся возможности на основе субъективных прав. Неиспользование субъективных прав в течение соответствующего периода приведет к потере этого права с течением времени. Гарантийные сроки так же важны, как и периоды гражданских прав для защиты прав личности.

Ключевые слова: товарный знак, гражданское право, гарантия, срок, требование, потребитель, изготовитель, продавец, исполнитель.

KIRISH

Odatda fuqarolik huquqlarini amalga oshirish muddatlari qonun bilan yoki boshqa me'yoriy bilan belgilanadi. Lekin, bu holat muddatlarni taraflarning o'zlarini tomonidan kelishuv asosida belgilanishiga to'sqinlik qilmaydi. Fuqarolik huquqlarini amalga oshirish muddatlari davomida sub'ektiv huquq sohibi huquqlarini uning o'zi amalga oshirish lozim. Ba'zi holatlarda bo'nday huquq uchinchi shaxslar(vakil, vositachi va shu kabilar) tomonidan amalga oshiriladi.

Fuqarolik huquqida fuqarolik huquqlarini amalga oshirish muddatlarining quyidagi turlari mavjud: fuqarolik huquqlarini amalda bo'lish vaqtini belgilaydigan muddatlar, cheklovchi(preklyuziv) muddatlar, e'tiroz (претензиya) muddatları, kafolat muddati, yaroqlilik muddati, tovarning xizmat qilish muddati, tovardan foydalanish, tovarni saqlash muddati va boshqa muddatlar.

Fuqarolik huquqida iste'molchi huquqlari muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Har qanday iste'molchi uchun o'zi xarid qilayotgan tovar, o'ziga ko'rsatilayotgan xizmat, o'z foydasiga bajarilayotgan ishda kamchiliklar va nuqsonlar yuzaga kelsa ularni sotuvchi, ijrochi va pudratchi tomonidan tekinga bartaraf etilishi, sifatlisi va yangisi bilan almashadirib berilishi qancha vaqt mobaynida amal qilishini bilishi muhimdir.

Bunday vaqt davrlari fuqarolik huquqida kafolat muddatlari deb nomlanadi. Kafolat muddati – tovar (ish, xizmat)dan foydalanishning (oylar hisobidagi) normativ

muddati yoki tovar (ish, xizmat)ning muayyan vazifani(necha soatda, necha ish jarayonida, qancha kilometr masofoni bosib o‘tib va h.k.) bajarish vaqt tarzida belgilangan muddati bo‘lib, bu muddat ichida ishlab chiqaruvchi (ijrochi), basharti tovarni ishlatish (xizmatda foydalanish) qoidalariga rioya etilgan bo‘lsa, tovarning (xizmatning) sifatiga nisbatan normativ hujjatlarda nazarda tutilgan talablar bajarilishini kafolatlaydi va ta’minlaydi (O‘zbekiston Respublikasining 1996 yil 25 apreldagi "Iste’molchilar huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida"gi qonunning 1-moddasi).

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Huquqshunos olimlar I.B.Zokirov va A.P.Sergeyevlarning fikricha, kafolat muddatlari- uzoq muddat foydalanishga mo‘ljallangan mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar)ga qonun shuningdek, standartlar, texnikaviy shartlar va shartnomalarda kreditorning mahsulotdagi kamchiliklarni bartaraf etishni ularni yangisi bilan almashtirib berishni talab qilishi mumkin bo‘lgan muddatdir¹. Kafolat muddatlari ko‘pchilik holatlarda tovarlar, ishlar, xizmatlarni taklif etishning o‘ziga xos usuli hisoblanadi. Istemolchilarni jalb etishda kafolat muddatlari muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. Chunki, istemolchi tovar, ish va xizmatga sotuvchi, ishlab chiqaruvchi, pudratchi va ijrochi tomonidan berilayotgan, kamchiliklar va nuqsonlar qaysi paytga qadar yuzaga kelsa, tekinga bartaraf etilishiga qarab bozordagi tovar, ish va xizmatlarni tanlaydi. Bunda kim uzoqroq muddatni belgilasa iste’molchi aynan uning tovari, ishi va xizmatini tanlashi shubhasizdir. Shu bilan birga kafolat muddatining qancha vaqtga belgilanganiga qarab mahsulotning sifati va chidamlilagini aniqlash mumkin.

M.A.Gurvichning fikricha, bu muddatlar davomida qarzdor (ishlab chiqaruvchi, sotuvchi, pudratchi, ijrochi) tovar hech qanday e’tirozlarsiz iste’molda bo‘lishiga kafolat beradi va vujudga kelishi mumkin bo‘lgan kamchiliklarni tuzatish yoki mahsulotni sifatlisi bilan almashtirish majburiyatini oladi. Shuningdek bu muddatlar davomida vujudga kelgan kamchiliklar va nuqsonlar yuzasidan qarzdor zimmasiga yuklatiladigan hatti-harakatlar asosiy majburiyatga qo‘sishimcha ravishda vujudga keladigan majburiyat hisoblanadi.² Darhaqiqat, qarzdor kafolat muddati davomida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan majburiylarni o‘z zimmasiga olishi unga nisbatan qo‘sishimcha majburiyat bo‘lib, bunday majburiyatlar vujudga kelmasligi ham mumkin

¹ И.Зокиров Ўзбекистон Республикасининг Фуқаролик хукуки Т. Адолат 1996. -126 б.; Гражданское право. Учеб.Т.3. т.1/Под.ред. А.П.Сергеева, Ю.К.Толстого.-М.:Проспект.1998.-298 с.

² Гурвич М.А. Пресекательные сроки в советском гражданском праве.М.1961.

(agar shu muddat davomida tovar, ish va xizmatda nuqsonlar va kamchiliklar yuzaga kelmasa).

Kafolat muddati iste'molchilarni tovarni, ishni, xizmatni ko'zdan kechirish, undan foydalanish, saqlash jarayonida aniqlanishi mumkin bo'lмаган, yashirin kamchiliklar natijasida vujudga keladigan zararlar xavfidan muhofaza qiladi. Bunday muhofaza iste'molchi mulkiy manfaatlariga xizmat qiladi.

Odatda, kafolat muddatlari aniq kalendar vaqt bilan belgilanadi. Masalan, SONY firmasining televizorlari sotilganida uch yil, vediomagnitafon ta'mirlanganida olti oy va shu kabilar. Bunday tashqari, kafolat muddatlari boshqa usullar bilan ham belgilanishi mumkin. Masalan, yengil avtomobilning ma'lum kilometr yo'l bosishi.

Umumiyligida ko'ra, mahsulot(tovar, ish, xizmat)ga kafolat muddatlari, mahsulot iste'molchiga topshirilgan paytdan o'ta boshlaydi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 404-moddasiga muvofiq, agar oldi-sotdi shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, kafolat muddati tovar sotib oluvchiga topshirilgan paytdan e'tiboran o'ta boshlaydi, Shu bilan birga, kafolat muddatining o'tishi boshqa holatlar bilan ham belgilanishi mumkin. Masalan, iste'molchining tovardan foydalanishni boshlashi bilan.

Agar sotib oluvchi sotuvchiga bog'liq bo'lgan holatlar to'fayli oldi-sotdi shartnomasida kafolat muddati belgilangan tovardan foydalanish imkoniyatidan mahrum bo'lsa, sotuvchi tegishli holatlarni bartaraf etmagunicha kafolat muddatining o'tishi boshlanmaydi(FKning 404-moddasi 2-qismi). Masalan, televizor sotib oluvchiga topshirildi, lekin foydalanish yo'riqnomasi topshirilmagunicha sotib oluvchi undan foydalana olmaydi. Sotuvchi tomonidan televizorning foydalanish yo'riqnomasi sotib oluvchiga topshirilganidan so'nggina kafolat muddati o'ta boshlaydi.

Taraflarning kelishuvi bilan belgilangan kafolat muddati tovarlar, ishlar va xizmatlardagi nuqsonlarni bartaraf etish uchun ketgan vaqt davomida o'zaytirilishi mumkin. Bunda kreditorning tegishli vaqt oralig'ida tovardan foydalana olmaganligi hisobga olinadi. Masalan, sotib olingan muzlatgichda kafolat muddati davomida kamchilik aniqlandi va bu kamchilikni tuzatish uchun bir oy vaqt sarflandi. Agar, oldi-sotdi shartnomasida muzlatgich uchun 18 oy kafolat muddati belgilangan bo'lsa, kamchiliklarni tuzatish uchun ketgan bir oy mobaynida sotib oluvchi undan foydalana olmaganligi uchun belgilangan 18 oylik kafolat muddatiga bir oy qo'shiladi va shundan so'ng muzlatgichning kafolat muddati 19 oyni tashkil etiladi.

Oldi-sotdi shartnomalarida tovardagi nuqsonlarni bartaraf etish va kamchiliklarni tuzatish uchun ishlatilgan tovarning nuqsonli qismi bilan

almashtirilgan butlovchi buyumning kafolat muddati ham tovar(asosiy buyum)ning kafolat muddatiga teng bo‘ladi va u bilan bir vaqtda o‘ta boshlaydi(FKning 404-moddasining 4-qismi). Ushbu qoidadan butlovchi buyumning kafolat muddatiga taaluqli ikki holatni ko‘rish mumkin. Birinchidan, butlovchi buyum kafolat muddatining qancha vaqtgacha davom etishini, ikinchidan, butlovchi buyum kafolat muddatining o‘ta boshlash vaqtini.

Birinchi holatda butlovchi buyumning kafolat muddati u qaysi tovarni butlagan bo‘lsa shu tovarning kafolat muddatigacha davom etishi belgilangan. Masalan, kafolat muddati asosida sotilgan magnitafonning motori, magnitafon sotib olinib ikki oy foydalanilganidan so‘ng yuqori kuchlanish natijasida ishdan chiqdi. Bu haqda sotib oluvchi ogohlatirilgach, magnitafonga sotuvchi hisobidan yangi motor qo‘yildi. Ushbu holatda magnitafonni tuzatish uchun unga qo‘yilgan yangi motorning kafolat muddati asosiy tovar magnitafonning kafolat muddati bilan teng bo‘lishi kerak. Lekin, motor magnitafon kafolat muddatining ikki oyi o‘tgach qo‘yilganini hisobga olsak, butlovchi buyum- motorning kafolat muddati qanchongacha davom etadi, - degan savol tug‘iladi. Chunki, FKning 404-moddasida mustahkamlangan qoidaga ko‘ra asosiy va butlovchi buyumning kafolat muddati tengdir.

Bu qoidani agar asosiy buyum olti oylik kafolat muddati bilan berilgan bo‘lsa, butlovchi buyumga ham olti oy kafolat muddati beriladi,-deb tushunmaslik lozim. Kafolat muddatinig ma’lum qismi o‘tgandan so‘ng qo‘yilgan(almashtirilgan) butlovchi buyumning kafolat muddati, u asosiy buyumga qachon qo‘yilganidan qat’iy nazar, asosiy buyumning kafolat muddatiga qadar davom etadi va u bilan bir vaqtda tamom bo‘ladi.

Yuqorida misolada ifodalangan motorning kafolat muddatini oylar bilan hisoblaydigan bo‘lsak, bu muddat to‘rt oyni tashkil etadi va magnitafon kafolat muddati bilan bir vaqtda tamom bo‘ladi.

Nuqsonli va kamchiliklari mavjud bo‘lgan tovar yangisi bilan almashtirilganida bunday almashtirish kafolat muddatining qancha qismi o‘tganidan qat’iy nazar yangidan hisoblanadi. Masalan, chang yutgich bir yillik kafolat muddatining o‘n birinchi oyida yangisi bilan almashtirilsa, unga nisbatan kafolat muddati yangidan hisoblanadi va yana bir yil davom etadi.

Kafolat muddatining o‘tkazib yuborilishi iste’molchi(sotib oluvchi, buyurtmachi)ning tovardagi nuqsonlarni bartaraf etish, uni yangisi bilan almashtirib berishni talab qilish huquqini yo‘qotilishga olib keladi. Iste’molchi tovardagi nuqson va kamchiliklarni bartaraf etishni kafolat muddati o‘tganidan so‘ng ham talab qilishi mumkin. Bunda faqatgina, belgilangan kafolat muddati davomida tovarda

kamchiliklar va nuqsonlar aniqlansa bo‘ldi va kamchiliklarni tuzatishni hamda nuqsonlarni bartaraf etishni kafolat muddati tamom bo‘lganidan so‘ng ham amalga oshirish mumkin. Masalan, ikki yillik kafolat muddatining yigirma ikkinchi oyida tovarda kamchiliklar aniqlandi. Lekin sotib oluvchi kamchiliklarni bartaraf etishni tovar sotib olinganidan ikki yil-u ikki oy o‘tgach talab qildi. Bu holatda sotuvchi kafolat muddati o‘tib ketgan,- deb kafolat nazarda tutilgan majburiyatlarni bajarishdan bosh tortishga haqli emas. Chunki, kafolat muddati tovarning belgilangan muddatda kamchiliklarsiz va nuqsonlarsiz tayinlanish maqsadlariga muvofiq xizmat qilishini ifodalandaydi va buzilgan huquqlarni tiklashni talab qilish mumkin bo‘lgan vaqtini ifodalamaydi.

XULOSA

Kafolat muddati bilan bir vaqtda, fuqarolik huquqida sub’ektiv huquqning amal qilish davomida kafolat xarakteriga ega bo‘lgan boshqa muddatlar ham harakat qiladi. Bunday muddatlar jumlasiga, yaroqlilik muddati, tovarning xizmat qilish muddati, saqlash va boshqa muddatlar kiradi. Shu munosabat bu muddatlar alohida toifaga ajratilmaydi va ular adabiyotlarda kafolat muddatlarining turlari sifatida ko‘riladi³. Ushbu muddatlarning har biri o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, ularning har biri boshqasidan farq qiluvchi huquqiy oqibatlarni vujudga keltiradi. Masalan, yaroqlilik muddati o‘tib ketgan tovarni sotganlik uchun javobgarlik belgilansa, xizmat qilish muddati davomida sotuvchining aybi bilan vujudga kelgan nuqsonlar uchun javobgarlik belgilanadi.

REFERENCES

1. Зокиров И. Ўзбекистон Республикасининг Фуқаролик ҳуқуқи Т. Адолат 1996. -126 б.;
2. Гражданское право. Учеб.Т.3. т.1/Под.ред. А.П.Сергеева, Ю.К.Толстого.- М.:Проспект.1998.-298 с.
3. Imomniyozov, Doniyorbek Baxtiyor O‘G‘Li (2022). YURIDIK SHAXSLARNING UMUMIY YIG‘ILISH QARORLARINI HAQIQIY EMAS DEB TOPISHNING HUQUQIY OQIBATLARI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2 (1), 430-447.
4. Иброҳимов Азимжон Абдумўмин Ўғли (2021). КОРПОРАЦИЯНИ БОШҚАРИШДА ФИДУЦИАР МАЖБУРИЯТЛАР ВА УЛАРНИ

³ Гурвич М.А. Пресекательные сроки в советском гражданском праве. -М.: 1961. -52-60 с.; И.Зокиров. Ўзбекистон Республикасининг фуқаролик ҳуқуқи. -Т.: Адолат. 1996. -126 б.; Гражданское право. Учебник. Т.3. Т.1./Под ред. А.П.Сергеева, Ю.К.Толстого. -М.: Проспект. 1998. -299 с.

ЎЗБЕКИСТОНДА ҚЎЛЛАШ ИМКОНИЯТЛАРИ. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1 (10), 841-853. doi: 10.24412/2181-1784-2021-10-841-853

5. Asadov, Shahriddin Faxriddin O'G'Li (2021). FUQAROLIK-HUQUQIY MUNOSABATLARDA DAVLAT ISHTIROKI (DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK MISOLIDA). Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1 (11), 789-799. doi: 10.24412/2181-1784-2021-11-789-799
6. Koryogdiyev, Bobur Umidjon Ogli (2021). BITIMNI HAQIQIY EMAS DEB TOPISH VA UNING OQIBATLARINI QO'LLASH FUQAROLIK HUQUQLARINI HIMoya QILISH VOSITASI SIFATIDA. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1 (11), 211-225. doi: 10.24412/2181-1784-2021-11-211-225
7. Imomov N. F. New objects of intellectual property law/Editor-in-Chief O. Okyulov //Tashkent: TSIL. – 2011.
8. Топилдиев Б. Р. ОСОБЕННОСТИ ГРАЖДАНСКО-ПРАВОВОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ ПЕРЕДАЧИ ПРЕДПРИЯТИЯ В ДОВЕРИТЕЛЬНОЕ УПРАВЛЕНИЕ //ПРАВОВЫЕ АСПЕКТЫ РЕГУЛИРОВАНИЯ ОБЩЕСТВЕННЫХ ОТНОШЕНИЙ. – 2019. – С. 29-33.
9. Sharaxmetova, U. (2017) "Issues of improving the regulation of circumstances preventing marriage in family law," Review of law sciences: Vol. 1 : Iss. 2 , Article 10. Available at: https://uzjournals.edu.uz/rev_law/vol1/iss2/10
10. Musaev E. T. Current issues of protecting the rights and interests of subjects in the field of sports //Review of law sciences. – 2018. – Т. 2. – №. 2. – С. 7.
11. Topildiev B., Khursanov R., Usmonova M. Trust management agreement Property and prospects for its development in the Republic of Uzbekistan //European Journal of Molecular & Clinical Medicine. – 2020. – Т. 7. – №. 3. – С. 3199-3205.
12. Гурвич М.А. Пресекательные сроки в советском гражданском праве. М. 1961.